

BOLALARDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQA VA CHOLG'U  
ASBOBLARINING AHAMIYATI.

**Qobilov Baxtiyor Shavkat o'g'li**

Nizomiy nomli Toshkent Davlat

pedagogika universiteti maktabgacha ta'lif fakulteti  
o'qituvchisi

**Kalit so`zlar:** Kuy, musiqa, cholg'u asboblari, dars, ijodiy tafakkur, fiziologik.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda musiqa va cholg'u asboblarining ahamiyatiga oid ilmiy nazariy xulosalar keltirilgan.

**Ключевые слова:** Мелодия, музыка, инструментовка, урок, творческое мышление, физиологическое.

**Аннотация:** В этой статье представлены научные теоретические выводы о значении музыки и музыкальных инструментов в развитии творческого мышления у детей.

**Keywords:** Melody, music, instrumentation, lesson, creative thinking, physiological.

**Abstract:** This article presents scientific theoretical conclusions about the importance of music and musical instruments in the development of creative thinking in children.

Donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish ota-onas orzusi hisoblangan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola hali yurishni, so'zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo'l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqa cholg'u asboblaridan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo'lib qolgan. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma'nnaviyatli, go'zallikni his eta oladigan inson bo'lishi kerak, bu jarayonda ijod va ijodiy tafakkurning roli benihoya kattadir. Endilikda ijodiy tafakkur tushunchasiga to'xtalib o'tishni joiz topdik.

Ijodkorlikning barcha turlari intellekt va aqliy faoliyatning asosiy funktsiyalari bilan mos keladi.

1. Tafakkur tabiat va jamiyatning hissiy idrok eta olmaydigan muhim hodisalarini biliishga qaratilgan.

2. Tafakkur doimiy o'zgaruvchan muhitga moslashishning maqbul usullarini izlashga qaratilgan bo'lib, bu nostandard vazifalar va vaziyatlarni hal qilishda bo'lGANI kabi, yangi yashash sharoitlariga moslashish harakatlari va shakllarini o'zgartirishni talab qiladi. Ba'zi yangi natijalarga erishish uchun vositalarni topishga qaratilgan operatsion ijodkorlik eski vositalarga e'tibor qarata olmaydi.

3. Tafakkur funktsiyasi barcha xatti-harakatlar va faoliyatlarda zarur bo'lGAN maqsadli tasvirni bashorat qilish va modellashtirishni o'z ichiga oladi. Barcha konstruktiv va badiiy ijod tafakkurning ushbu funktsiyasiga asoslanadi.

Shunday qilib, tafakkur va ijodkorlik bir xil funktsiyalarni bajaradi, ammo turli maqsadlar uchun va qobiliyatları bir xil bo'lImagan turli xil aqliy operatsiyalar yordamida. Shu bilan birga, haqiqatni oldindan bilmasdan o'zgartirish mumkin emas. Ijodiy tafakkur rivojlanishida musiqa tu8rlari v ava cholgu asboblarining togri qollanishi bolalarda ijodit tafakkur jaratonlariga ijobiy tasir korsatadi.

Musiqa tinglashga doir asarlar shakl va janr jihatidan xilma - xil bolmog'i lozim. Aynan musiqa tinglash vositasida bolalar turli o'zbek xalq cholg'u sozlari, o'zbek xalq musiqasidan namunalar («Chertmak», «Dutor bayoti», «Alla», «Dilxiroj») kabi asarlar bilan bolalar kompozitorlari va bastakorlar hayoti va ijodi, milliy musiqamiz an'analari kuy va qo'shiqlar bilan tanishadilar. Musiqiy o'quv bo'sh bo'lGAN bolalar har tomonidan jarangdor ovozlarni eshitib ularga taqlid qilib, chiroqli, sof intonatsiyada kuylashga harakat qiladilar. Boshlangich sinf o'quvchilari o'z diqqat - e'tiborini uzoq vaqt bir narsaga qaratib turolmaydilar, juda tez charchab qoladilar. Shuning uchun ham musiqa madaniyati darslarida musiqiy ijroga ahamiyat berib borish, chapak chalish, qadam tashlash kabi hilma - hil harakatlardan foydalanish zarur. Ayniqsa bolalar musiqiy cholg'u asboblari (doiracha, bubencha, shiqildoq, marakassa, uch burchak, rumba, barabancha)da jo'r boiish va ritmik raqs harakatlarini bajarish, bolalarni faollashtiradi va dars qiziqarli, mazmunli o'tadi. Kuylar ohangini o'quvchilarning xotirasida chuqr o'mashib qolishi uchun, ular bilan birga kuylash tavsiya etiladi. Shuni esdan chiqarmaslik kerak, musiqa asarini yaxshi esda saqlab qolish uchun kamida 2 - 3 marta eshittirish har gal kuyning yangi qirralari bilan tanishtirib boriladi, musiqa tinglashni esa sodda so'zli asarlardan boshlab asta -sekin murakkablashtirib borish lozim.

Bundan tashqari musiqiy vositalardan foydalanishda o'quvchilar yoshi va psixofiziologik imkoniyatlarini inobatga olish alohida o'rinn tutadi. Maktabda 7 - sinf o'quvchilari psixologik - fiziologik harakteriga ko'ra diqqat - e'tiborlari turg'un, dunyoqarashi rivojlangan bo'ladi. Ular mustaqil fikr yuritish, hikoya tuzish, musiqaga doir albom, referatlar, sinf burchaklari va ko'rgazmali qurollar tayyorlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi o'quvchilarning bu ijodiy xususiyatlaridan foydalanib, musiqa san'atiga, musiqa savodiga doir ko'rgazmali qurollar tayyorlash vazifasini topshirishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni e'tirof etishimiz mumkinki bolalarda ijodiy tafakkur rivojlanishida san'at turlarining xususan cholg'u asboblari yordamida musiqiy savodxonlikni oshirishning ahamiyati kattadir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ермолаева-Томина Л. Б. Психология художественного творчества: Учебное пособие для вузов. — М.: Академический Проект, 2003. —304 с. — («Gaudeamus»). ISBN 5-8291-0327-3

2. Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent-2014.